

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA VOKAL IJROCHILIGINI SHAKLLANTIRISHDA “VOKAL-MNEMONIK VIZUALIZATSIYA” (VMV) METODINING ILMIY-PEDAGOGIK ASOSLARI

Bakirova Muxsina Sobirjon qizi

Xalqaro Nordik universiteti magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning musiqiy-estetik rivojlanish jarayonida vokal ijrochiligi qobiliyatlarini shakllantirishning nazariy va pedagogik muammolari tahlil qilingan. An’anaviy vokal metodikalaridan farqli o‘laroq, vizual-mnemonik vositalar (belgilar, rangli sxemalar) va logopedik-vokal mashqlarning sintezi taklif etilgan. Tadqiqotda ishlab chiqilgan "integrativ-o‘yinli model" bolaning nafaqat musiqiy eshitish qobiliyatini, balki uning nutqiy artikulyatsiyasi va emotsional ekspressivligini (hissiy ifodaliligini) uzviy bog‘liqlikda rivojlantirishga xizmat qilishi ilmiy jihatdan asoslangan.

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta’lim, vokal ijrochiligi, musiqiy qobiliyat, estetik tarbiya, integrativ-o‘yinli model, innovatsion metodika, vizual-mnemonik vositalar

Bugungi kunda yurtimizda maktabgacha ta’lim tizimini tubdan isloh qilish, xususan, "Ilk qadam" davlat o‘quv dasturi asosida barkamol avlodni voyaga yetkazish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Maktabgacha ta’lim sohasidagi islohotlarimiz – bu kelajak uchun qo‘yilgan eng mustahkam poydevordir”. Bu poydevorni mustahkamlashda vokal ijrochiligi maktabgacha yoshdagi bolalarning musiqiy-estetik madaniyatini shakllantiruvchi eng ommaviy va ta’sirchan estetik vosita bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrda “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi O‘RQ-595-sonli Qonuni hamda “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi talablariga ko‘ra, bolalarning musiqiy qobiliyatlarini innovatsion yondashuvlar asosida shakllantirish davr talabidir. Biroq, amaliyot shuni ko‘rsatmoqdaki, zamonaviy axborotlashgan jamiyatda vokal o‘qitish metodlari bolalarning qiziqish va ehtiyojlarini to‘liq qondira olmayapti. Vokal o‘qitish metodlarining asosan an’anaviy takrorlashga tayanib qolishi bolalarning vizual idrok etish ehtiyojlarini to‘liq qoplamayapti.

Hozirgi globallashtirish va raqamli texnologiyalar asrida bolalarning musiqiy idroki o‘zgargan bo‘lib, an’anaviy "eshitish va qaytarish" metodikasi zamonaviy "Alfa" avlodi bolalarining qiziqishlarini to‘liq qondira olmayotgani birinchi ijtimoiy-pedagogik omil sifatida namoyon bo‘lmoqda. Afsuski, keyingi paytlarda yosh bolalarning planshet va telefonlarga bog‘lanib qolishi kabi salbiy omillar hamda ijtimoiy tarmoqlardagi mazmunsiz "ommaviy madaniyat" namunalariga ko‘r-ko‘rona ergashishi vokal-estetik tarbiyaga jiddiy to‘siq bo‘lmoqda. Ayniqsa,

raqamli texnologiyalar shiddat bilan rivojlanayotgan ushbu davrda bolalarning musiqiy idroki va vokal ijrochiligi ko'nikmalarini tizimli ravishda rivojlantirish ularning nafaqat badiiy didini, balki psixofiziologik salomatligini ham ta'minlovchi muhim omildir.

Psixofiziologik nuqtai nazardan tahlil qilinganda, 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan davr bolaning ovoz apparati shakllanishi uchun eng optimal, ya'ni sensitiv bosqich hisoblanadi. Mazkur davrda vokal ijrochiligini vizual-mnemonik vositalar orqali shakllantirish bolaning kelajakda intellektual salohiyatini oshirishga va nutqiy nuqsonlarning oldini olishga xizmat qiladi. O'zbek musiqa pedagogikasida bolalar vokalini rivojlantirish bo'yicha qator olimlar tomonidan tadqiqotlar o'tkazilgan bo'lsa-da, aynan vizual-mnemonik vizualizatsiya (VMV) modelini integratsiyalash orqali vokal mahoratini oshirish masalasi maxsus tadqiqot obyekti sifatida yetarlicha o'rganilmagan.

Shu bois, vokal darslariga innovatsion-texnologik modellarni, xususan, "Vokal-mnemonik vizualizatsiya" (VMV) modellarini integratsiya qilish zaruriyati mazkur tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilaydi. Ushbu maqolaning maqsadi – maktabgacha yoshdagi bolalarda vokal ijrochiligini rivojlantirishning metodik tizimini takomillashtirish hamda "VMV" modeli kabi yangi pedagogik texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etishning nazariy-metodologik asoslarini ilmiy jihatdan yoritib berishdan iborat.

Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda vokal ijrochiligini shakllantirish jarayonini ilmiy-nazariy jihatdan asoslash maqsadida kompleks pedagogik va psixologik tadqiqot metodlaridan foydalanildi. Muammoning ilmiy-nazariy qarashlarini o'rganishda, eng avvalo, teoretik tahlil usuli qo'llanildi. Ushbu metod orqali musiqa pedagogikasi va vokal san'atiga oid ilmiy adabiyotlar, vokal ta'limi nazariyalari hamda psixofiziologik yondashuvlar bo'yicha mavjud konsepsiyalar tadqiq etildi.

Tadqiqotning metodologik tayanchi sifatida quyidagi to'rtta asosiy ilmiy yondashuv tanlab olindi:

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyasi: Bolalarning individual-fiziologik imkoniyatlarini va ovoz apparatining yoshga doir xususiyatlarini inobatga olgan holda vokal qobiliyatini shakllantirish.

Tarixiy-madaniy yondashuv: Milliy vokal san'atining tarixiy ildizlarini tahlil qilish orqali madaniy merosga tayangan tarbiya metodlarini amaliyotga joriy etish.

Etno-pedagogik yondashuv: Bolalar folklorini, jumladan "Alla" va o'yin qo'shiqlarini vokal ta'limida asosiy vizual va musiqiy vosita sifatida qo'llash.

Faoliyatga asoslangan yondashuv: Bolalarni musiqiy-didaktik o'yinlar orqali faol ijrochilikka jalb qilish.

Jahon va milliy pedagogika tajribalarini o'rganishda komparativ (taqqoslama) tahlil usulidan keng foydalanildi. Bunda milliy vokal maktabimizning "ustoz-shogird" (eshitish-qaytarish) an'analari xorijiy ilg'or

tajribalar bilan qiyoslandi. Xususan, Zoltan Kodai va Karl Orff metodikalari alohida tahlil markazida bo'ldi. Z. Kodai tizimidagi "relyativ solmizatsiya" usulining bolalarda musiqiy eshitishni ongli ravishda rivojlantirishi hamda K. Orffning "Shulverk" tizimi vokalni ritmik harakatlar bilan sintez qilishga asoslanishi – bolaning vokal apparatini zo'riqtirmasdan, tabiiy shakllantirish imkonini beruvchi ideal metodlar sifatida e'tirof etildi.

Tadqiqot muammosini pedagogik-psixologik jihatdan yechishda zamonaviy psixologiya fanining ilg'or tajribalari jalb etildi. Masalan, D. Goulman nazariyasi asosida vokal ijrochiligi bolada hissiy intellektni (EQ) rivojlantiruvchi, musiqiy obrazni empatiya orqali yetkazib berishga xizmat qiluvchi jarayon sifatida talqin qilindi. Shuningdek, K. Levinning demokratik yondashuv uslubi bolaning erkin ijod qilishi va ovoz boylamlaridagi "psixologik qisilish" (zajim) larning oldini olishda muhim nazariy model sifatida qabul qilindi.

Vokal-estetik tarbiyaning tarixiy ildizlarini o'rganishda Sharq mutafakkirlarining ilmiy merosiga tayanildi. Abu Nasr Forobiyning inson ovozini eng mukammal musiqiy cholg'u ekanligi haqidagi qarashlari hamda Ibn Sinoning yosh bolalarga yoqimli kuylar eshittirish orqali ularning estetik hislari va salomatligini mustahkamlash mexanizmlari bugungi kun vizual-mnemonik metodologiyasini yaratishda tarixiy poydevor vazifasini o'tadi. Barcha tahlil qilingan usullar vokal ta'limini an'anaviy xulq-atvoriy (mexanik takrorlash) yondashuvidan zamonaviy vizual-assotsiativ (ko'rish, eshitish va harakat sintezi) yondashuviga olib o'tish mexanizmlarini ilmiy jihatdan belgilab berdi.

adqiqotning metodologik va ilmiy-nazariy tahlillari natijasida maktabgacha ta'lim tizimida ilk bor vokal ko'nikmalarini shakllantirishning mutlaqo yangi – "integrativ-o'yinli modeli" ishlab chiqildi. Mazkur model ilmiy jihatdan "Vokal-mnemonik vizualizatsiya" (VMV) deb nomlandi. Olingan nazariy natijalarga ko'ra, VMV – bu maktabgacha yoshdagi bolalarning mavhum musiqiy tovush balandligini aniq vizual (rangli jadvallar, mnemonik belgilar) va harakatli (kinestetik) obrazlar orqali ongli ravishda idrok etishini ta'minlovchi innovatsion metodik modeldir.

Mavjud an'anaviy yondashuvlarni qiyosiy tahlil qilish asnosida, innovatsion VMV metodikasining amaliyotga joriy etilishi kerak bo'lgan asosiy komponentlari farqlab olindi. An'anaviy vokal metodikalaridan farqli o'laroq, ishlab chiqilgan ushbu modelda quyidagi konseptual o'zgarishlar taklif etildi:

Intonatsiya: Musiqiy asarlarni faqat eshitish va takrorlashga tayanadigan an'anaviy usuldan voz kechilib, tovushlarni rangli va vizual obrazlar orqali ongli boshqarish tizimiga o'tildi.

Vokal nafasi: Bolalarda nafas mashqlarini shunchaki kuzatuv orqali emas, balki mnemonik sxemalar va kognitiv nazorat yordamida o'zlashtirishni ta'minlash mexanizmi yaratildi.

Artikulyatsiya va diksiya: Soʻzlar talaffuzini mexanik oʻrganish oʻrniga, tezaytgichlar va vizual daktillash vositalaridan iborat logopedik-vokal mashqlar sintezi amaliyotga kiritildi.

Ritmik idrok: Anʼanaviy metronom va urib sanash usuli oʻrniga, bolalar uchun qiziqarli boʻlgan kinestetik harakatlar va grafik modellar taklif etildi.

Shuningdek, tadqiqot natijasi sifatida VMV materiallarini musiqiy mashgʻulotlarga integratsiyalashning oʻziga xos shakllari ishlab chiqildi. Bular qatoriga quyidagilar kiradi:

Tematik vokal mashgʻulotlari: Muayyan musiqiy obraz asosida VMV modullari bilan uygʻun dars tashkil etish (masalan, "Rangli notalar bogʻida" vizual-vokal mashgʻuloti).

Loyihaviy-musiqiy ishlar: Bolalarni qisqa ijodiy loyihalar tayyorlashga jalb qilish (masalan, "Mening sevimli qoʻshigʻim: qaysi rangga oʻxshaydi?").

Krosskurikulyar yondashuv: Bir necha faoliyat turlarini, xususan, musiqa, tasviriy sanʼat va nutq oʻstirishni vokalga asoslangan umumiy mavzu atrofida birlashtirish.

Vokal trening va didaktik oʻyinlar: "Notalar zinapoyasidan kim balandroq sakraydi?" kabi VMV vaziyatlariga asoslangan amaliy ijrochilik oʻyinlari.

Umuman olganda, nazariy izlanishlar natijasida yaratilgan mazkur model bolaning nafaqat musiqiy eshitish qobiliyatini, balki uning nutqiy artikulyatsiyasi va emotsional ekspressivligini (hissiy ifodaliligini) uzviy bogʻliqlikda rivojlantirishga xizmat qilishi ilmiy jihatdan asoslandi. Ushbu yondashuv bolaning vokal apparatini zoʻriqtirmasdan, anʼanaviy taqlidiy oʻqitishdan vizual anglashuvga asoslangan taʼlim muhitiga oʻtishni taʼminlaydi.

Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatadiki, vokal ijrochiligi shunchaki mexanik harakat emas, balki bolaning psixofiziologik salomatligi va hissiy intellektini (EQ) oʻstiruvchi murakkab pedagogik jarayondir. Xorijiy olim D. Goulman nazariyasiga muvofiq, VMV metodidagi vizual-assotsiativ yondashuv bolaga musiqiy obrazni empatiya orqali toʻgʻri idrok etish va oʻz hissiyotlarini boshqarish imkonini beradi. Shuningdek, K. Levinning psixologik yondashuvlari asosida darslarni erkin, didaktik oʻyinlar shaklida tashkil etish bolalarning ovoz boylamlaridagi turli psixologik qisilishlarning (zajim) oldini olishda muhim omil boʻlib xizmat qiladi.

Ushbu zamonaviy yondashuvlar Sharq mutafakkirlari, xususan, Forobiyning inson ovozi eng mukammal cholgʻu ekanligi hamda Ibn Sinoning musiqaning shifobaxsh xususiyatlari haqidagi tarixiy qarashlari bilan toʻla hamohangdir. Xulosa oʻrnida taʼkidlash joizki, maktabgacha yoshdagi bolalar vokal taʼlimida milliy merosimizni innovatsion "Vokal-mnemonik vizualizatsiya" (VMV) modeli bilan sintez qilish anʼanaviy yodlashdan voz kechib, ongli ijrochilikka oʻtishni taʼminlaydi. Bu esa bolalarda badiiy did, toza intonatsiya, nutqiy ravonlik va oʻziga boʻlgan ishonchni shakllantirishning eng maqbul pedagogik yechimidir. Ishlab chiqilgan ushbu nazariy-metodologik modelning taʼlim tizimidagi haqiqiy

samaradorligi maxsus tajriba-sinov ishlari va statistik tahlillar orqali o'z isbotini topishi maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrda "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi O'RQ-595-sonli Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrda 802-son "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori ("Ilk qadam" davlat o'quv dasturi).
3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – T.: O'zbekiston, 2021.
4. Abdullaeva G'.Sh. Vokal mahorati asoslari: Nazariy va amaliy jihatlar. – Toshkent: Musiqa, 2018.
5. Abu Ali ibn Sino. Tib qonunlari. II jild (Musiqa va salomatlik boblari). – Toshkent: Fan, 1982.
6. Abu Nasr Forobiy. Musiqa haqida katta kitob (Kitob al-musiqa al-kabir). – Toshkent: Fan, 2010.
7. Sharipova G. Musiqa o'qitish metodikasi. Ma'ruzalar matni. – Toshkent, 2006.
8. Goleman D. Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ. – New York: Bantam Books, 2005.
9. Kodály Z. The Selected Writings of Zoltán Kodály: Music Education. – London: Boosey & Hawkes, 1974.
10. Lewin K., Lippitt R., White R. Patterns of aggressive behavior in experimentally created social climates. – The Journal of Social Psychology, 1939.
11. Orff K. Music for Children (Schulwerk): Elementar musiqa ta'limi. – London: Schott Music, 1958.